



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI
DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI
BUXORO VILOYATI FILIALI**

Manzil: 200104, Buxoro shahar, Ibn Sino ko'chasi, 206-uy, Tel: 98-774-01-63

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI
XULOSASI**

TARTIB RAQAM 01-02/15-787

HUJJAT TURI Atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi ariza loyihasi

Davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachisi: JEMCHUG INVEST MCHJga berildi.
STIR: 311504505

Obyekt nomi: "БУХОРО ВИЛОЯТИ БУХОРО ТУМАНИ "БОГДАШТ" МФЙ ХУДУДИДА "JEMCHUG INVEST" МЧЖГА "БИРИНЧИ ВА ИККИНЧИ КАВАТИДА САВДО ВА МАЙШИЙ ХИЗМАТ КУРСАТИШ ВА ЮКОРИ КАВАТЛАРИДА КУП ХОНАДОНЛИ ТУРАР ЖОЙ" БИНОСИ КУРИЛИШИ"

Loyihalarini ishlab chiquvchi nomi: "ME'MOR SUV LOYIHA" MAS'ULIYATI
CHEKLANGAN JAMIYAT

STIR: 302681781

Davlat ekologik ekspertizasi mas'ul eksperti: MUZAFAROV BOTIR ULUGBEKOVICH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiq, ushbu davlat ekologik ekspertizasi obyekti **atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning IV toifa toifasining 7-bandiga mansub.**

O'tkazilgan davlat ekologik ekspertizasi natijasi: **Ijobiy xulosa**

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi: **Ilovasiz huquqiy hujjat hisoblanmaydi**

Berilgan sana: 23.08.2024

Amal qilish muddati: 23.08.2027

*Ekologik ekspertiza obyektining ekologik talablarga muvofiqligi, joylashuv nuqtalari koordinatalari, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari, bajarilishi shart bo'lgan talablar va boshqalar to'g'risida ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertiza markazi va filiallarining ekspert xulosasi ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasining **ajralmas qismi hamda unda belgilangan talablar bajarilishi shart hisoblanadi.***

***Izoh:** Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rioya etilmaganda, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinadi.*

Direktor



M.Maxmudov

Davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo'yicha Ekspert xulosasi talablari

Davlat ekologik ekspertizasi markazi Davlat muassasasi Buxoro viloyat filiali buyurtmachi tomonidan quyidagi talablar bajarilishi shartligini ta'kidlaydi:

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilishi to'g'risida" gi qonunning 5 bob 16 moddasi (Tabiiy resurslardan foydalanish shartlar) hamda 10 bob 45 moddasi (Tabiatni chiqindilar bilan ifloslanishdan muhofaza qilish) talablariga to'liq rioya qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 02 oktyabrdagi 787-sonli qarorining 13-bandi talablaridan kelib chiqib, ko'p qavatli aholi turar joy xududidan 20 m dan kam bo'lmagan masofada chiqindi to'plash shaxobchasi tashkil qilinsin.

Atmosfera havosining ifloslanishini kamaytirish uchun asfalt yo'lga chiqishdan oldin qurilish texnikasi va transport vositalarining g'ildiraklarini suv bilan tozalash uchun maxsus joylar tashkil qilish;

Qayta tiklanadigan energiya manbaalarini va resurslarni tejaydigan uskunalaridan foydalanish, xavflilik darajasi pastroq bo'lgan energiya tejaydigan svetodiod lampalardan foydalanish, fotoelektrik kameralar yordamida ichki pod'ezdlarni yoritishni tashkil etish;

Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni tashkil etish tizimini isloh qilish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida 2022 yil 11-avgustdagi 189 sonli farmoni bo'yicha: belgilab qo'yilsinki, 2023 yil 1 yanvardan boshlab, yangi quriladigan kam kvartirali uylarni chiqindi to'plash joylarini belgilamasdan loyihalashtirish hamda foydalanishga qabul qilish taqiqlanadi;

ESLATMA! Obyektni tashkil etishda o'simlik dunyosiga zararli ta'sirni kamaytirish uchun, obyekt hududida mavjud bo'lgan o'simliklarni maksimal darajada saqlash usullarini topish lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi PF-46-sonli "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonining 2-bandi "Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriyning amal qilishi muddatsiz davrga uzaytirilsin", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi

PF-6155-sonli Farmonining 24-bandli 6-xat boshiga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 18 fevraldagi 93-sonli "Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalarning qimmatbaho navlarini saqlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori talablariga muvofiq, vakolatli davlat o'rganlariga davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga ruxsatnoma berish man etiladi.

Obyekt hududidagi va uning yaqinidagi daraxtlarni ko'chirilishi yoki kesilishi zaruriyatida belgilangan tartibda ruxsatnomalarni olgandan so'ng, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi inspeksiyasining nazoratida bajarilishi shart. Mazkur davlat ekologik ekspertizasi xulosasi daraxtlarni kesish uchun ruxsatnoma bo'lib xisoblanmaydi. Daraxtlarni kesish yoki butalash uchun belgilangan tartibda Buxoro viloyat ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasining ruxsatnomasini olinishi zarur

Qurilish tugagandan so'ng bino atrofi qurilish chiqindilaridan tozalanib, obodonlashtirilib, ko'kalamzorlashtirilsin.

Xulosada ko'rsatilgan shartlar bajarilmaganda va yuqorida ko'rsatilgan bino faoliyatidan boshqa qo'shimcha faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda ushbu ekologik ekspertiza xulosasi o'z kuchini yo'qotadi.

Yuqorida ko'rsatilgan shartlarning bajarilishini nazorat qilish Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi Buxoro tuman inspeksiyasi zimmasiga yuklatiladi.



Ma'sul ekspert: MUZAFAROV BOTIR ULUGBEKOVICH

Obyekt haqida qisqacha ma'lumot

Buxoro viloyat Davlat ekologik ekspertizasi markazi Davlat muassasasi Buxoro viloyati filialiga "Jemchug Invest" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan Buxoro tuman Bog'idasht MFY hududi Yangi O'zbekiston massividan ko'p xonadonli turar joy binosi qurilishining atrof muhitga ta'sir ko'rsatish to'g'risida ariza loyihasi ekologik ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etildi.

Umumiy 2224,0 m² yer maydonda obyekt qurilishi uchun Elektron-onlayn auksionlari tashkil yetish markazi AJning 08.08.2024 yildagi Yu 1194337 – sonli bayonnomasi berilgan. Shundan ishlab chiqilgan loyihaga asosan qurilish bilan band maydon 900 m², ko'kalamzorlashtiriladigan yer maydon 324 m², qattiq qoplamali yer maydon 1000 m² ni tashkil qiladi.

Qurilishi rejalashtirilgan yer maydonning geografik koordinatalari 39.741508 64.421473 ni tashkil qilib, shimol tomonidan umumiy avtomobil yo'li bilan, sharq, janub va g'arb tomonlardan – bo'sh yer maydon bilan chegaralangan.

Taqdim etilgan loyihaga asosan obyekt 9 qavatli 1 dona bino qurilishi rejalashtirilgan bo'lib, 56 ta xonadon yashashi mo'ljallagan turar-joy hamda pastki qavatlarida savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari bo'lishi kutilmoqda. Obyektda 168 kishi istiqomad qilishi hamda 10 kishi ish bilan ta'minlanishi rejalashtirilgan.

Binoning muhandislik tarmoqlari (gaz, elektr energiya, aloqa xizmatlari, suv va boshqalar) xududida mavjud bo'lgan tarmoqlariga ulanadi.

Ko'p qavatli turar joy binosini yilning qish mavsumida issiqlik bilan ta'minlash maqsadida har bir xonadonda tabiiy gazda ishlovchi 2 konturli isitish uskunasi va xonadonda yashovchilarning ovqat pishirishi uchun 4 komforkali gaz plitasi o'rnatilishi rejalashtirilgan bo'lib, ushbu uskunalar ishlashi uchun yiliga jami 6,726 m³/yil miqdorda tabiiy gaz sarflanadi. Tabiiy gaz yonishidan uglerod oksidi 3,354 tonna/yil, azot oksidi 0,5641 tonna/yil, oltingugurt oksidi 0,0009643 tonna/yil jami 0,2113 tonna miqdorda chiqindi gazlar atmosfera havosiga tashlanadi.

Binoning ish faoliyati davrida xo'jalik va ichimlik suv maqsadlariga suv ta'minoti Buxoro tuman toza ichimlik suv quvuridan olinib, quyidagi maqsadlarga ishlatiladi. Ichimlik suv extiyoji xonadonda yashovchilar uchun (sanitar tizimlar bilan) 7,3 m³/kun yoki 3,694 m³/yil, ishchi-xizmatchilar uchun 0,15 m³/kun yoki 46,8 m³/yil, qattiq qoplamali maydoni uchun 0,022 m³/kun yoki 2,3 m³/yil miqdorida suv sarflanadi.

Qurilishi mo'ljallanayotgan ob'ekt ish faoliyati davrida jami ishlatiladigan suv sarfi 15,77 m³/kun yoki 5,74 m³/yil tashkil qiladi. Bino faoliyati davrida xosil bo'ladigan 15,1 m³/kun yoki 5,6 m³/yil miqdordagi oqova suvlar shahar oqova suv quvuri orqali suv tozalash inshootlariga chiqariladi.

Ko'p qavatli turar turar joy binosi ish faoliyati davrida hosil bo'ladigan qattiq va maishiy chiqindilar miqdori, yashovchilardan 41,2 tonna, qattiq qoplamali maydonidanidan 0,704 tonna, jami 41,9 tonna miqdorida chiqindi hosil bo'ladi.

Hosil bo'ladigan qattiq va maishiy chiqindilar bino hududida o'rnatiladigan axlat to'plagichlarga yig'ilib, keyinchalik Buxoro viloyat "Maxsus avto xo'jalik" MChJ bilan shartnoma asosida Buxoro tuman markaziy axlatxonasiga chiqariladi.

Binoni yoritish uchun 600 dona LED lampalardan foydalanish ko'zda tutilgan bo'lib, yaroqsiz holga keladigan lampa chiqindisi tuman markaziy ahlatxonasiga chiqariladi.

Buxoro viloyat Davlat ekologik ekspertizasi markazi Davlat muassasasi Buxoro tuman Bog'idasht MFY hududi Yangi O'zbekiston massividan ko'p xonadonli turar joy binosi qurilishining atrof muhitga ta'sir ko'rsatish to'g'risida ariza loyiha hujjati hujjatini ko'rib chiqib, ishchi loyiha asosida amalga oshirilishini **ma'qullaydi.**

Davlat ekologik ekspertizasi ob'ektining ekologik talablarga muvofiqligi xususida davlat ekologik ekspertizasining bergan **xulosasi berilgan kundan e'tiboran 3 (uch) yil** mobaynida yuridik kuchga ega bo'ladi.



Ma'sul ekspert: MUZAFAROV BOTIR ULUGBEKOVICH